



IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA OLTINNING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF GOLD IN ENSURING ECONOMIC STABILITY

**¹Qodirov Ermat
Toshpo'latovich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.n.

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada oltin bozorining shakllanish jarayoni, uning amaldagi holati hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – mamlakatda oltin bozorini tubdan isloh etish jarayonida yuzaga kelayotgan muhim tendensiyalarni aniqlash, mavjud muammolarni kompleks yondashuv asosida o'rganish va ularni bartaraf etishga doir ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Eng. - This article analyzes the formation process of the gold market, its current state, and future development prospects. The main objective of the study is to identify key trends emerging in the course of the comprehensive reform of the national gold market, examine existing challenges through a systematic approach, and develop scientifically grounded proposals and recommendations to address them.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ oltin bozori, narx barqarorligi, investitsiya salohiyati, regulyator siyosati, oltin zaxiralari.

❖ gold market, price stability, investment potential, regulatory policy, gold reserves.

Kirish.

Xalqaro valyuta tizimida oltin eng ishonchli o'lchov birligi, noyob metall va yuqori sifatli ayirboshlovchi aktiv sifatida alohida o'rin tutadi. Asrlar davomida uning xalqaro moliyaviy munosabatlardagi beqiyos roli iqtisodchi olimlar tomonidan shubhasiz e'tirof etilgan bo'lib, bu borada isbot talab qilinmaydigan ilmiy asoslar shakllanib ulgurgan. Biroq, alohida mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida oltinning tutgan o'rni o'ziga xos bo'lib, bu holatni chuqur iqtisodiy va moliyaviy tahlillar orqali asoslash, uning makroiqtisodiy ahamiyatini aniqlashtirish zarur bo'lmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirish va mustahkamlash jarayonida oltin yuqori qiymatga ega bo'lgan

aktiv sifatida muhim rol o'ynaydi. Valyuta qimmatligi nuqtayi nazaridan qaralganda, oltin O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligi va tashqi iqtisodiy imijini mustahkamlovchi omil sifatida baholanadi. Mustaqillik yillarida milliy iqtisodiyotning shakllanishida oltin sohasi yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston iqtisodiyotida tabiiy resurslar, xususan, oltin muhim strategik ahamiyatga ega. Mamlakat hududida mavjud yirik geologik zaxiralar va istiqbolli konlar natijasida oltin sanoati iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylangan. Jahon oltin bozorida talabning ortib borayotgani, investitsion va zargarlik mahsulotlariga bo'lgan qiziqishning kuchayishi, shuningdek, ichki bozorni liberallashtirishga qaratilgan islohotlar

ushbu sohaning rivojlanish istiqbollarini yanada kengaytirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

N.Zaxarova fikriga ko'ra, barcha davrlarda oltin milliy boylikning asosiy o'lchov birligi sifatida qaralgan bo'lib, u iqtisodiy barqarorlik va boylikning timsoli sifatida xizmat qilgan. Uning ta'kidlashicha, insonlar qadim zamonlardan buyon oltinni quyma, tanga hamda zargarlik buyumlari ko'rinishida saqlashga intilgan, bu esa uning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ham ega ekanligini ko'rsatadi [1]. Oltin asrlar davomida to'lov vositasi sifatida faol muomalada bo'lgan va jahon iqtisodiy tarixida muhim rol o'ynagan. Uning fizik-kimyoviy xossalari va konlarning muayyan geografik joylashuvi esa oltinning qimmatbaho va izlaniluvchan foydali qazilma sifatidagi mavqeini belgilab bergan.

J.Ataniyazovning ta'kidlashicha, oltin hozirgi kunda asosan davlatlar tomonidan oltin-valyuta zaxiralarini shakllantirishda va mamlakatning to'lov balansidagi taqchillikni qoplash vositasi sifatida foydalanilmoqda [2]. Uning fikricha, oltinning bunday funksional roli xalqaro moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib, u global iqtisodiy beqarorlik sharoitida xavfsiz aktiv sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Rossiya iqtisodchisi Y.Yurovaning fikriga ko'ra, jahon oltin bozorlarida asosan jismoniy oltin va uning hosilalari savdosi amalga oshiriladi, bu holat global moliyaviy tizimda oltinning barqaror o'rin egallashiga asos bo'lmoqda [3].

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida yuzaga kelayotgan noaniqliklar va geosiyosiy keskinliklar jahon oltin bozorining izchil rivojlanishiga sezilarli darajada to'siq bo'lmoqda. Bu borada iqtisodchilarning fikricha, qimmatbaho metallar moliya-iqtisodiy tizimda asosiy zaxira va boylik manbai sifatida e'tirof etilib, mamlakat milliy valyutasining barqarorligi ko'p jihatdan oltin-valyuta

zaxiralari hajmi va ularning diversifikatsiyalanganlik darajasiga bog'liq. Bloomberg tomonidan taqdim etilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda Amerika, Osiyo, Afrika va G'arbiy Yevropa qit'alarida 50 dan ortiq oltin bozorlari faoliyat yuritmoqda [4].

E.Dariuszning fikriga ko'ra, jahon oltin zaxiralari asosan Avstraliya, Rossiya va Janubiy Afrika davlatlarida joylashgan bo'lib, Xitoy, Avstraliya va Rossiya eng yirik oltin ishlab chiqaruvchilar qatoridan o'rin oladi [5]. Mazkur davlatlar jahon oltin ishlab chiqarishining 30 foizdan ortig'ini ta'minlaydi. Shuningdek, oltinga bo'lgan talabning 48 foizi zargarlik sanoatiga to'g'ri keladi va bu sohada eng katta talab Xitoy hamda Hindistondagi biznes subyektlari hisobiga shakllanadi.

S.Artemyev va I.Dolmatovichning fikricha, oltinning jahon bozoridagi taklif va talab hajmiga, shuningdek, uning narxiga bir qator omillar – global siyosiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ilmiy-texnik taraqqiyot va boshqa tashqi muhit ta'sirlari bevosita ta'sir ko'rsatadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida oltin bozorining shakllanish bosqichlari, uning hozirgi holati hamda rivojlanish istiqbollarini o'rganish maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda dunyodagi eng yirik oltin ishlab chiqaruvchi 15 ta davlat qatoriga kiradi. Mamlakat oltin sanoatida yirik konlarga ega bo'lib, ularning eng yirigi – Muruntau koni Navoiy viloyatida joylashgan va dunyodagi eng katta konlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Amantoytau, Darkan, Qizilqum, Ko'kpatas kabi konlar ham yuqori geologik zaxiralarga ega bo'lib, mamlakatning oltin resurs bazasini shakllantiradi.

Oltin qazib olish va uni qayta ishlash jarayonlarida Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) hamda Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) muhim strategik ahamiyatga ega sanoat subyektlari hisoblanadi. Mazkur korxonalar zamonaviy texnologiyalarni joriy etgan holda xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirgan. Natijada, ular jahon bozorida raqobatbardosh oltin mahsulotlarini yetkazib berishda muhim o'rin egallamoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda oltin bozorini liberallashtirish yo'nalishida muhim institutsional islohotlar amalga oshirildi. Xususan:

2018-yildan boshlab jismoniy va yuridik shaxslarga oltin quymalarini erkin xarid qilish huquqi berildi;

Investitsion quymalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi;

Oltin eksporti bo'yicha ruxsatnomalar va bojxona tartib-tamoyillari soddalashtirildi;

Tijorat banklari tomonidan oltin depozitlari, metall hisobvaraqlari kabi yangi moliyaviy mahsulotlar joriy etildi.

Mazkur choralarda ichki bozorda raqobat muhitini kengaytirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ichki bozor tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi yillarda oltin mahsulotlariga nisbatan talab sezilarli darajada ortgan. Ushbu o'sish, bir tomondan, aholining investitsion vositalarga bo'lgan qiziqishining

kuchaygani bilan, boshqa tomondan esa, og'ir sanoatining faollashuvi bilan izohlanadi. Ayniqsa, zargarlik buyumlariga nisbatan talabning ortib borishi oltinning iqtisodiy qiymatini oshiruvchi muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda.

Tashqi bozorda O'zbekiston Respublikasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan oltinning eksport geografiyasi asosan Shveysariya, Birlashgan Arab Amirliklari va Xitoy Xalq Respublikasi kabi davlatlarni o'z ichiga oladi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, oltin eksportidan mamlakat budjetiga 7 mlrd. AQSh dollariga yaqin tushum kelib tushgan. Ushbu ko'rsatkich oltin sanoatining davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Kelgusi davrda oltin eksportining diversifikatsiyasi, yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish va eksport geografiyasini kengaytirish mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga xizmat qiluvchi ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Xalqaro valyuta fondi muntazam ravishda turli mamlakatlar tomonidan e'lon qilingan milliy aktivlar statistikasini yuritib boradi. Ushbu ma'lumotlar Jahon Oltin Kengashi tomonidan mamlakatlarning oltin zaxiralarini vaqti-vaqti bilan tartiblash va hisobot berish uchun foydalaniladi. Quyidagi 1-jadvalda 2025-yil may oyi holatiga ko'ra, mamlakatlarning oltin-valyuta zaxirasida oltin ulushi keltirilgan.

1-jadval

Jahon Oltin Kengashi ma'lumotlariga ko'ra mamlakatlarning oltin-valyuta zaxirasida oltin ulushi (2025-yil may oyi) [7]

N ^o	Mamlakat	Oltin zaxiralari (tonna)	OVZda oltinning ulushi
1	AQSh	8133,5	74,9%
2	Germaniya	3351,2	77,1%
3	Italiya	2451,8	74,1%
4	Fransiya	2437,0	74,7%
5	Rossiya	2332,7	29,5%
6	Xitoy	2292,3	6,5%
7	Shvetsariya	1039,9	9,6%

8	Hindiston	879,6	13,4%
9	Yaponiya	845,9	6,6%
10	Turkiya	623,9	43,6%
11	Gollandiya	612,4	64,9%
12	Polsha	509,3	22,0%
13	Tayvan	422,4	4,7%
14	Portugaliya	382,6	84,0%
15	O'zbekiston	367,6	77,0%

Ushbu jadval 2025-yil may holatiga ko'ra mamlakatlarning oltin-valyuta zaxirasidagi oltin miqdori va uning ulushini ko'rsatadi. Jadvaldan ma'lum bo'lishicha, AQSh 8133,5 tonna oltin zaxirasi bilan dunyoda yetakchi o'rinda turib, uning oltin-valyuta zaxirasidagi ulushi 74,9% ni tashkil etadi. Germaniya, Italiya va Fransiya ham katta oltin zaxiralarga ega bo'lib, ularning oltin ulushi 74-77% atrofida.

Rossiya va Xitoy kabi yirik davlatlarda oltin ulushi nisbatan past bo'lib, mos ravishda 29,5% va 6,5% ni tashkil qiladi. Bu esa ularning zaxiralari tarkibida boshqa aktivlarning ham katta o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Shvetsariya, Hindiston va Yaponiya kabi mamlakatlarda ham oltin ulushi kamroq bo'lib, ular zaxiralarda diversifikatsiyaga e'tibor qaratgan.

Portugaliya va O'zbekiston oltin zaxiralari ulushi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega. Masalan, Portugaliyada oltin zaxiralari umumiy zaxiraning 84%, O'zbekistonda esa 77%ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki xalqaro standartlarga asosida oltin, chet el valyutasi va undagi qimmatli qog'ozlar, moliyaviy derivativ kabi aktivlar zaxiralarini boshqarish, hisob-kitob qilish, saqlash kabi funksiyalarni bajaradi. Ushbu aktivlarning zaxira sifatida tan olinishi uchun bir qator talablar mavjud bo'lib, yuqori likvidli aktiv bo'lishi, xalqaro pul funksiyasini bajaruvchi valyutada bo'lishi, pul-kredit tashkilotlarining erkin tasarrufi va nazoratida bo'lishi lozim.

O'zbekiston oltin sanoatining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlash

maqsadida quyidagi strategik yo'nalishlar ustuvor deb baholanmoqda:

Tovar-xom ashyo birjalarini rivojlantirish – oltin savdolarini elektron platformalar orqali amalga oshirish orqali bozorning shaffofligi, likvidligi va narx shakllanishi mexanizmlarining adolatligi oshiriladi.

Xususiy sektor ishtirokini kengaytirish – litsenziyalash va ruxsatnomalar berish jarayonlarini soddalashtirish, shuningdek, kichik va o'rta biznes subyektlarini oltin qazib olish va qayta ishlash faoliyatiga jalb etish orqali oltin sanoatida klasterlik yondashuvni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish – oltinning aylanishi, eksporti va ishlab chiqaruvchilar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik asoslarini izchil takomillashtirish zarur bo'lib, bu sanoat barqarorligining institutsional kafolati sifatida xizmat qiladi.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash – konlarni ekspluatatsiya qilish jarayonlarida atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish, "yashil texnologiyalar"ni joriy etish orqali barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya etilishi ta'minlanadi.

Milliy brend yaratish – xalqaro sertifikatlariga ega bo'lgan "O'zbekiston oltini" nomli milliy brendni shakllantirish orqali mahsulotlarni jahon bozorining yuqori segmentlariga olib chiqish, ishonch darajasini oshirish va eksport hajmini ko'paytirish mumkin.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan olib borilayotgan oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish siyosati zamonaviy xalqaro moliyaviy standartlarga mos ravishda amalga oshirilmoqda. Ushbu siyosat mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, tashqi iqtisodiy tahdidlarga qarshi himoya mexanizmini yaratish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadlariga xizmat qiladi.

Birinchidan, O'zbekistonning oltin-valyuta zaxiralari hajmi nisbatan barqaror va yetarli darajada bo'lib, u mamlakatning tashqi qarz majburiyatlari va import ehtiyojlarini qoplashda ishonchli moliyaviy zaxira vazifasini bajaradi. Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi tavsiyalariga ko'ra, bunday zaxiralar kamida 3-6 oylik import hajmini qoplay olishi lozim. O'zbekiston zaxiralari esa ushbu mezonlarga mos keladi.

Ikkinchidan, Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan diversifikatsiyalashgan portfel siyosati oltin va valyutaning turli shakllari, shuningdek, turli geografik zonalarda joylashgan aktivlar o'rtasida muvozanatni

ta'minlashga qaratilgan. Bunda oltin zaxiralari nafaqat moliyaviy xavfsizlik omili, balki investitsion vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Uchinchidan, mavjud zaxiralar jahon narxlarining tebranishi, valyuta kurslari beqarorligi yoki global moliyaviy inqiroz holatlarida mamlakat moliyaviy barqarorligini saqlashga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, Markaziy bank tomonidan daromad keltiruvchi investitsiya strategiyasining qo'llanilishi ham zaxiralarni boshqarish samaradorligini oshirmoqda. Ushbu strategiya doirasida likvid va kam xatarga ega xalqaro aktivlarga investitsiya kiritilishi orqali nafaqat zaxiralarning qiymati saqlab qolinadi, balki ularning real daromadlilik ham ta'minlanadi.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshirilayotgan oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish siyosati iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi strategik mexanizm sifatida o'zini oqlamoqda hamda iqtisodiyotning tashqi risklarga bardoshlilikini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Захарова Н.В., Дворцов А.В. Мировой рынок золота, текущие тенденции и последствия пандемии // Экономика и предпринимательство. 2022. № 12(149). С. 57–61. DOI 10.34925/EIP.2022.149.12.008.
2. Ataniyazov J.X., Alimardonov E.D., 2023. Xalqaro moliya. "Nihol-print" MChJ.
3. Юрова Ю.С. Мировой рынок золота: тенденции развития и влияние на мировую экономику // Государственное управление и развитие России: проектирование будущего: матлы Междунар. студенческого научного фестиваля. Москва: Издательский дом «Научная библиотека», 2022. С. 340–346.
4. <https://www.bloomberg.com> - Global miqyosdagi biznes va moliyaviy axborot portali.
5. Dariusz Eligiusz Staszczak. Fall of the Global Gold Exchange Standard and the Formation of the Contemporary Free Gold Market. European Research Studies Journal. 2021, vol. 0, pp. 341–347.
6. Артемьев С.М., Долматович И.А. Золото на мировых рынках: современные аспекты // Молодая наука — 2022: мат-лы Тринадцатой национальной науч.-практ. конф. молодых ученых, аспирантов и студентов в 2-х частях. Ярославль: Редакционно-издательский отдел Международной академии бизнеса и новых технологий (МУБиНТ), 2022. С. 12–14.
7. <https://www.gold.org> – Jahon oltin kengashining rasmiy veb sahifasi.